Jalilov Mirsaid Bektosh o`g`li
NavDPI doktaranti , Tarix kafedrasi o`qituvchisi

Navoiy viloyatining cho'l hududlari tarixiga oid manbashunoslik

Anotatsiya : Qadimgi Buxoro hududining asosiy qismi chakalakzor va qamishzor partov yerlardan iborat bo'lgan. Chunki bu davrda Zarafshon suvlari vodiyning Samarqand qismida dehqonchilik uchun mutlaqo sarf bo'lmay, uning yillik oqimi Buxoro yerlarida xalqob bo'lib yotar, hatto uning etagida – hozirgi Qorako'l va Olot nohiyalari hududida ilk o'rta asr yozma manbalarida tasvirlangan mashhur"Borgini Farox", ya'ni "Ulkan ko'l" hosil bo'lgan edi.

**Kalit so`zlar :** Oyoqog`itma. Sho`rko`l. sizot suvlari. Titis dengizi. Urbanizatsiya. Nur, Xarqonrud, Vardona, Tarovcha, Safna Isvonalar

Miloddan avvalgi II ming yillik oxiri va I ming yillik boshlarida O'rta Osiyoning dashtlik yerlarida yashayotgan aholi hayotida sodir bo'lganidek, Zarafshon vodiysi quyi qismidagi qabilalarning chorvachilik xo'jaligida ham tez suratlar bilan rivojlanish jarayoni kuzatiladi. Zarafshon daryosining har ikkala qismida dehqonchilik uchun qulay bo'lgan yerlarda yarim ko'chmanchi chorvadorlarning bir qismi o'troqlashib, yangi-yangi dehqon jamoalari shakllana boshlaydi. Moxondaryo, Gurdush va Gujayli o'zanlarining dashtlikka aylanib, yashash uchun nobop bo'lib qolgan havzaning aholisi hozirgi Buxoro vohasining shimoliy va shimoli-g'arbiy qismlariga tomon siljishidan[1] ancha ilgari, tadqiqotchi olimlarning ta'kidlashicha, Sarmishsoy va Bironsoy va Oyoqog'itma, SHo'rkul atrofida yashovchi ovchi va chorvador aholi ibtidoiy dehqonchilik xo'jaliklarini shakllantirib, Buxoro vohasining daryovot qismiga qarab enib borib chorvachilik va dehqonchilik xo'jaliklarini qaror topishida muhim rol o'ynagan.

Akademik A.Muhammadjonovning ta'kidlashicha, miloddan avvalgi II ming yillik oxiri va I ming yillik boshlarida Zarafshon daryosining o'rta qismidagi son-sanoqsiz soy etaklarida, chashmalardan hosil bo'lgan sizot suvlar yoqalarida o'troq dehqon jamoalari

[1] Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро. – Т.: Фан, 1991. -Б.30

qishloqlari paydo bo'lib, ularning atrofdagi chorvador aholi bilan bo'lgan muloqoti kuchayib boradi.

Qadimgi Buxoro hududining asosiy qismi chakalakzor va qamishzor partov yerlardan iborat bo'lgan. Chunki bu davrda Zarafshon suvlari vodiyning Samarqand qismida dehqonchilik uchun mutlaqo sarf bo'lmay, uning yillik oqimi Buxoro yerlarida xalqob bo'lib yotar, hatto uning etagida – hozirgi Qorako'l va Olot nohiyalari hududida ilk o'rta asr yozma manbalarida tasvirlangan mashhur "Borgini Farox", ya'ni "Ulkan ko'l" hosil bo'lgan edi.

Qo'rg'on va imorat devorlari paxsadan urilgan, qalinligi 1,2-2,2 metr va 0,6 metr balandlikda saqlangan. Kulolchilik ustaxonasi alohida bo'lib, qo'rg'onning sharqiy tomonida joylashgan, unda sapol idishlar pishiriladigan diametri 1,1 metr keladigan ikki ko'rali xumdon bor. Uning yuqori ko'rasi buzilib, olovxonasi ichiga qulab tushgan. Uning ichida kulolchilik charxida yasalgan ko'pdan-ko'p labi yupqa, gardishi yassi, jarangdor kuva va kuvachasimon, tog'arasimon sopol idishlar va ularning bo'laklari qalashib yotardi[2].

Qadimgi Konimex vohasidagi o'troq dehqonlarning mozor-qo'rg'onlari qazib o'rganilganda[3], o'sha zamon dafn marosimlari to'g'risidagi ma'lumotlar va ko'plab ashyoviy dalillarga ega bo'lindi. 1996 yil 3 aprelda Konimex tumaniga o'lkashunos Dumat Mamirovning so'rovnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining hududda o'tkazgan arxeologik tadqiqotlarning natijalari yuboriladi. Unga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining arxeolog olimlarining tadqiqotlariga ko'ra Konimex tumanida miloddan avvalgi VI - V asrdan to milodning VI-VIII asrlariga doir 41 ta yodgorlik aniqlangan. Ulardan ikki guruhi mozor qo'rg'onlardir. Ulardan biri SHodibek mozor qo'rg'onidir. U SHodibek qishlog'idan 400 metr g'arbda joylashgan. Mozor qo'rg'on miloddan avvalgi VI-II asrlarga tegishli bo'lib, qabrlar soni 29 tani tashkil qilgan. Ularda 7 tasi ochib o'rganilgan. O'rganilish natijalariga ko'ra: ular aylana shaklda, diametri 7-18 metr, 0,3-1,5 metr balandlikda bo'lgan. Qabr handaqlari, markazidan qaralganda (2-2, 20x 0,6-0,9 metr) oval shaklda joylashgan, chuqurligi 0,4-0,6 metr qabrlar janubi-g'arbdan, shimoli-sharq

[2] Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро. Т.: Фан. 1991 йил.-Б.32-33
[3] Муҳаммаджонов А. Тарих фалсафаси-маънавият кўзгуси. Т.: Ўзбекистон, 2015 йил.-Б.99

tomonga nur shaklida joylashtirilgan. Mayyitlar chalqancha yotgan holda boshi shimoli-sharq tomonga qaratilgan, qo'llari tana tomonga cho'zilgan, oyoqlari uzatilgan holda ko'milgan. Ba'zi qabrlarda ko'milganlarning bel qismida bir tomoni teshilgan qayroqtoshlar topilgan.

Urbanizatsiyalashgan dehqonchilik qishloqlari dastavval Buxoro vohasining shimoliy va shimoliy-g'arbiy qismlarida – Vobkentdaryo va Konimex (Navoiy viloyatining Qalqonota va Konimex hududlari) mintaqalarida paydo bo'lgan. Qazishmalar olib borish jarayonida o'rganilayotgan qabrlarning aksariyati o'sha zamonlarda qazib ochilib, dafn ashyolari o'g'rilab ketilgan bo'lsada, tadqiqot ishlari natijasiga ko'ra, ushbu qishloqlarning yoshi miloddan avvalgi VI-V asrlarga borib taqalishini isbotlab berildi.

Mintaqada o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar qadimgi Konimex hududi qadimgi So'g'd madaniyatiga mansub urbanizatsiyalashgan dehqon-hunarmand jamoalarining makoni ekanligi, bu maskan miloddan avvalgi VI-V asrlarda asos solinganligi[4] va bu yerda hayot milodiy VI-VII asrlargacha davom etgani aniqlangan. Hudud aholisi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Shunday qilib, Buxoro vohasida, xususan uning shimoliy va shimoliy-g'arbiy qismlarida ilk shahar tipidagi urbanizatsiyalashgan qishloqlar milodgacha bo'lgan VI-V asrlardayoq qad ko'tara boshlagan. Ular Zamonbobolik qadimgi xonaki chorvador dehqonlarning yarim yerto'la hamda yengil cho'pkori chaylalardan tubdan farq qiladigan yirik xom g'isht va paxsadan bino qilingan, atrofi devor bilan o'ralgan, hunarmandchilik ancha-muncha rivoj topgan istehkomli qishloqlar edi. Ular, shubhasiz vohada shahar madaniyati yuksalib, shaharlarning qad ko'tarishida asosiy poydevor bo'lib xizmat qilgan[5].

Miloddan oldingi VIII asrning oxiri – VII asrga kelib O'rta Osiyoning janubidagi qishloqlar rivojlanishida jadallik bilan o'zgarishlar boshlanib Baqtriya va Sug'diyona hududlarida shaharsozlik belgilarini (mustahkam devorlar, saroylar, burjlar, xandaqlar, devorlardagi o'q otish yo'laklari va boshq.) aks ettiruvchi manzilgohlar paydo bo'ladi. Ilk temir davriga oid bunday manzilgohlarning soni Baqtriya, Marg'iyona va Sug'diyonada 20 tadan ziyodroqni tashkil etadi. Mintaqadagi asosiy manzilgohlar esa (maydoni 5 gektardan kam) qishloq qo'rg'onlari, uncha katta bo'lmagan alohida qal'alar va dehqonchilik

[4] Муҳаммаджонов А. Тарих фалсафаси-маънавият кўзгуси. Т.: Ўзбекистон, 2015 йил.-Б.99
[5] Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро. Т.: Фан. 1991 йил.-Б.34

qishloqlaridan iborat. Shaharlar turiga kiritish mumkin bo'lgan, kattagina qo'rg'onli mustahkamlangan manzilgohlar ayrim qadimgi dehqonchilik viloyatlarida (Surxon, Qashqadaryo, Zarafshon havzalari va boshq.) bitta yoki ikkitadan ko'p bo'lmagan[6].

Shu tariqa So'g'diyona mintaqasida Afrosiyob, Yerqo'rg'on, Uzunqir kabi shaharlar bilan bir qatorda Chordara kabi shahar tipidagi manzilgohlar shakllandi. Ilk temir davri O'rta Osiyoning janubida xususan, Sug'diyonada, alohida hududiy tartib guruhida bo'lib, markaziy vazifani bajargan bir nechta manzilgohlar turlari mavjud edi. Bularga birinchidan, maydoni 5 gektardan 15 gektargacha bo'lib, tuman-voha markazi vazifasini bajaruvchi Daratepa, Konimex, Chordara kabilardir. Ikkinchidan, maydoni 20 gektardan 80 gektargacha bo'lgan viloyat markazlari vazifasini bajarishi mumkin bo'lgan O'zunqir, yerqo'rg'on, Xo'ja Bo'ston kabilar hamda bir necha viloyatlar markazi vazifasini bajaruvchi va maydoni 100 gektardan ziyod bo'lgan Afrosiyob, Buxoro kabilar shular jumlasidandir[7].

Konimex hududidagi Chordara kabi istehkomlarni bunyod etilishi omillardan biri so'nggi bronza va ilk temir davriga kelib aholi soni va zichligining o'sib borishi, hosildor yer maydonlarining o'zlashtirilishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning jadallik bilan rivojlanishi aholi joylashuvinig hayotiy zarur hududlarga bo'linib ketishiga olib keladi. Bunday sharoitda chorvador aholining ma'lum qismi xo'jalikning yarim o'troq va chorvachilik shakliga o'tishga majbur bo'ladilar. SHuning uchun ham O'rta Osiyodagi miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid ko'chmanchilar yodgorliklari o'troq aholi hududlari chegaralarida (Orolbo'yi, shimoliy Turkmaniston, Zarafshonning quyi oqimi, Pomir, jumladan, Qizilqumning sharqiy chegarasi) joylashganligi tasodifiy hol emas[8]. 1973 yil Sovet O'zbekistoni gazetasida Konimex tumanidagi Chordara manzilgohi haqida quyidagi fikrlar keltiriladi: "Ilgarilari karvon yo'llarida qurilgan kuzatish minoralaridan biri deb hisoblanib kelgan makonni arxeologlar tomonidan olib borgan izlanishlar natijasida ma'lum bo'ldiki, Buxoro viloyati hududidan ikki yarim ming yillik tarixga ega Axamoniylar davrining yodgorligi birinchi bor uchratildi. Ushbu qo'rg'on besh qavatli uyning kattaligidek ko'tarilgan. Qo'rg'on pishmagan g'ishtdan qurilgan bo'lsada, mustahkamligi kishini hayron qoldiradi. 1973 yilning kuzida topilgan bu

[6] Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи.-Т.:2012 йил.-Б.60-61
[7] Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи.-Т.:2012 йил.-Б.36-37
[8] Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи.-Т.: 2012, -Б.36

manzilgohda arxeolog Rustam Sulaymonov birinchi bo'lib arxeologik tadqiqot o'tkazdi"[9].

Konimex hududida Chordara kabi istehkomlarni bunyod etilishi omillardan yana biri – bu davrga kelib O'rta Osiyoning dasht hududlarda joylashgan ko'chmanchi qabilalar hujumi xavfi edi. O'rta asrlarda bo'lgani kabi qadimgi davrda jumladan, miloddan avvalgi VII-VI asrlarga kelib bunday hujumlar tez-tez bo'lib turgan. Zero, O'rta Osiyoning dasht hududlarida yashovchi ko'chmanchilarning o'zlarining ixcham va jangovar qurollangan mahoratli jangchilari bilan ayniqsa, qish faslida jiddiy harbiy xavf tug'dira boshlagan.

Akademik A.Muhammadjonovning ta'kidlashicha, Konimexning miloddan avvalgi VI-V asrlarga mansub arxeologik yodgorliklari orasida tuman markazidan 5 km g'arbda joylashgan Chordara tepaligi ayniqsa diqqatga sazovordir. Uning maydoni 40x20 m, balandligi esa, 11 m ga teng. Bu baland tepalik ostki qatlamining uzunligi 56 sm, eni 28-30 sm, qalinligi 7-8 sm keladigan yirik xom g'isht hamda paxsadan urilgan istehkomli qo'rg'onning xarobalaridan iborat, uning tashqi devori va bir nechta xonalarida ravoqsimon eshik o'rinlari hozirgacha juda yaxshi saqlangan[10]. Chordarada devorlarining qalinligi 1,2-2,2 m bo'lgan 9 xonadan iborat paxsadan qilingan mustahkam manzilning balandligi 6 m gacha bo'lgan qismi saqlanib qolgan[11]. Qadimgi davrlarda Sug'd kichik mulklarga bo'lingan edi. Madaniy jihatdan bu viloyatni uch qismga – Samarqand Sug'di (Zarafshonning yuqori va o'rta oqimi), Buxoro Sug'di (Zarafshonning quyi oqimi) va Qashqadaryo Sug'di (Qashqadaryo vohasi)ga ajratiladi. XX asrning 30-yillarida Ahamoniylar davri madaniy qatlamlari faqat Janubiy Tojikiston hududlaridagina ma'lum edi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng mil.avv. VI-IV asrlarga oid yodgorliklar ko'pgina hududlarda aniqlanib, tadqiqotlar ko'lami kengaydi. Hozirgi kunda bu davrga oid manzilgohlar nafaqat Janubiy Turkmaniston, balki SHimoliy va Janubiy Baqtriyadan, Sug'diyonadan, Parfiya va Marg'iyonadan, Xorazmdan topib o'rganilgan bo'lsa, Buxoro vohasidagi Xo'ja Bo'ston, Konimex, Qumrabod, Arabon, Chordara, Qo'zmontepa kabi o'nlab ko'hna shahar va manzilgohlar ahamoniylar davriga oiddir. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, ular yirik etno-madaniy viloyatning uncha katta bo'lmagan tumanlari bo'lib, bu hududlarda mil.avv. VI-IV asrlarda umumiy ko'rinishi bir xil bo'lgan dehqonchilik madaniyati shakllanadi. Topilgan topilmalarning nihoyatda o'xshashligi shundan dalolat

[9] Мамыров Д. Кенимех таңы. Дәйекті деректер мен қысқача әңгімілер. Кенимех.: 1995, -Б.12-13
[10] Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро. Т.: Фан. 1991 йил.-Б.33
[11] Навоий –ўтмиши қадим, келажаги нурли диёр: китоб-альбом /тузувчи муаллифлар Р.Сулаймонов, Р.Ҳайдаров ва бошқалар – Т.: Маънавият, 2012. –Б.31.

beradi[12].

Arxeologik manbalarning ma’lumot berishicha miloddan avvalgi VII-VI asrlarga kelib O’rta Osiyoning janubida ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy munosabatlar anchagina murakkablashadi. Bu o’rinda Qadimgi Baqtriya ma’lumotlarini keltirib o’tish joizdir. Yozma manbalarda Baqtriya O’rta Sharqdagi muhim o’lka sifatida Ossuriya podshosi Ninning va Kir II ning (Gerodotda) harbiy rejalariga qarshi chiqqanligi hamda Aleksandr Makedonskiy qo’shinlariga qattiq qarshilik ko’rsatganligi ta’kidlanadi[13]. Albatta bu o’rinda bizning nazarimizda, So’g’diyona hududidagi muhim bo’g’ini bo’lgan chegara hududlaridagi Chordara kabi istehkomlari harbiy-siyosiy omillardan tashqari ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda ham katta ahamiyatga ega edi. Chunki, siyosiy jihatdan shakllangan davlat yoki uyushma boshqaruv tartibi va iqtisodiyotsiz taraqqiyot bosqichiga ko’tarila olmaydi.

Shuningdek, So’g’d o’lkasida Makedoniyalik Aleksandr uyushtirgan qirg’in barotdan omon qolgan so’g’diylar jon saqlash maqsadida quyi Zarafshon, ya’ni Buxoro vohasi tomon ko’chib, chakalakzor va to’qaylar qoplab yotgan bu sersuv yangi o’lkani o’zlashtirishga kirishishgan. Natijada qisqa muddat ichida butun voha bo’ylab son-sanoqsiz dehqonchilik qishloqlari va qal’alar qad ko’targan. SHu tariqa Buxoro shahri va uning atroflari gavjumlashib yangi aholi manzilgohlari vujudga keladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. Асанов Г., Набижонов М, Сафаров И. Ўзбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий жўғрофияси.-Т: Ўқитувчи, 1994 йил.
2. Аҳмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. –Тошкент, Абу Али ибн Сино тиббиёт нашри, 2002.
3. Аҳмедов Э., Сайидаминова З. Ўзбекистон Республикаси. - Тошкент: Ўзбекистон, 2006.
4. Бадов В., Мальгин О., Рахматуллаев О. Золото Кызилкумов. - Москва: Русский паритет, 1999.

[12] Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи.-Т.: 2012 йил.-Б.71
[13] Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи.-Т.:2012 йил.-Б.37

5. Бунёдкорлик тимсоли. Санақулов К. таҳ.ост. –Тошкент, 2016.
6. Ветштейн Л.М. Наш – «Навоимаш». – Ташкент: Абдулла Кадыри, 1998;
7. Ветштейн Л.М.Дороже Золота. – Ташкент: Мир экономики и права, 1999.
8. Ветштейн Л.М.Чудесней сплав. Навоий, 1998.
9. Ветштейн Л.М.Чудодеи Чудограда. – Ташкент: Авангард, 2000.
10. Ветштейн Л.М.Я – Навоийский цементник. – Ташкент: Абдулла Кадыри, 1999.